O‘zbekiston auditorlar palatasining
Metodologiya qo‘mitasi tomonidan
2026-yil 10-avgustda
“TASDIQLANGAN”

«ISLOM MOLIYASI VA BANKI BO‘YICHA MUTAXASSIS»

kasbiy sertifikat kursining

O‘QUV DASTURI

Sertifikatlash tizimining mustaqil yo‘nalishi

Kurs hajmi: 48 auditoriya soati + 48 soat mustaqil ta’lim

Ta’lim tili: o‘zbek tili

Toshkent — 2026

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu o‘quv dasturi «Islom moliyasi va banki bo‘yicha mutaxassis» malaka sertifikatini olishga tayyorlovchi kurslarning mazmuni, hajmi, kutilayotgan o‘quv natijalari va baholashga qo‘yiladigan eng kam talablarni belgilaydi.

1.2. Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-son Qonuni bilan mamlakatda islomiy bank faoliyati joriy etilishi munosabati bilan soha uchun malakali kadrlar tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan. Uning huquqiy asosini «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida» (O‘RQ-677) va «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» (O‘RQ-404) qonunlar, Prezidentning 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-son qarori hamda Palataning islom moliyasi bo‘yicha sertifikatlash to‘g‘risidagi Nizomi tashkil etadi.

1.3. Dasturning mazmuniy asosi — AAOIFI tomonidan chiqarilgan shariat standartlari, shuningdek boshqaruv standartlari, moliyaviy hisobot standartlari (FAS) va kasbiy etika standartining amaldagi tahrirlari.

1.4. Ushbu sertifikat sertifikatlash tizimining mustaqil yo‘nalishi hisoblanadi: u boshqa sertifikatlarni olishni talab qilmaydi va o‘zi ham boshqa sertifikatlar uchun asos bo‘lmaydi. Sertifikat, avvalo, banklarning islomiy bo‘linmalari, mikromoliya va sug‘urta tashkilotlari xodimlari, mahsulot va biznes yo‘nalishi rahbarlari, shuningdek regulyator va maslahat tashkilotlari mutaxassislariga mo‘ljallangan.

1.5. Dastur akkreditatsiyadan o‘tgan barcha o‘quv tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. O‘quv tashkiloti uning asosida o‘z o‘quv dasturi va o‘quv rejasini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi; mazmunni kengaytirish huquqiga ega, biroq hech bir modulning soatlari va baholashdagi ulushi belgilangan miqdordan kam bo‘lishi mumkin emas.

1.6. Malaka imtihoni Palata huzuridagi Imtihon komissiyasi tomonidan tashkil etiladi va o‘tkaziladi; sertifikat berish to‘g‘risidagi qarorni Malaka komissiyasi qabul qiladi. O‘quv tashkiloti imtihonni mustaqil o‘tkazish yoki sertifikat berish huquqiga ega emas.

1.7. AAOIFI ning CPSS, CSAA yoki CSE sertifikatiga ega shaxslarga ushbu sertifikat Nizomda belgilangan tartibda imtihonsiz berilishi mumkin. Bunday holda ham har yili malaka oshirish talabi saqlanib qoladi.

II. KURSNING MAQSADI VA VAZIFALARI

2.1. Kursning maqsadi — islomiy moliya mahsulotlarini AAOIFI shariat standartlari asosida tushunish, tanlash, tuzilmalash va mijozga taqdim etishga qodir, shariat talablari bilan bank amaliyotini bog‘lay oladigan mutaxassislarni tayyorlash hamda ularni malaka imtihoniga tayyorlash.

2.2. Kursning vazifalari:

- islom moliyasining shariat asoslarini va taqiqlarning iqtisodiy mazmunini tushuntirish;
- O‘RQ-1126-son Qonunda nazarda tutilgan islomiy moliya operatsiyalarining har biri bo‘yicha AAOIFI shariat standartlari talablarini o‘rgatish;
- mijoz ehtiyojiga mos shariatga muvofiq mahsulotni tanlash va uni to‘g‘ri tuzilmalash ko‘nikmasini shakllantirish;

- an’anaviy bank mahsuloti bilan uning islomiy muqobili o‘rtasidagi farqni amaliy darajada ko‘rsatish;
- mahsulot va operatsiyalarning hisobda hamda hisobotda aks etishi haqida umumiy tasavvur berish;
- shariat boshqaruvi tizimida mutaxassisning o‘rni va majburiyatlarini o‘rgatish;
- kasbiy etika tamoyillariga muvofiq qaror qabul qilish madaniyatini singdirish;
- tinglovchini malaka imtihonining test formatida ishlashga tayyorlash.

III. TINGLOVCHILARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

3.1. Kursga Nizomda «Islom moliyasi va banki bo‘yicha mutaxassis» sertifikati nomzodlariga qo‘yilgan talablardan kamida bittasiga javob beruvchi shaxslar qabul qilinadi:

- oliy iqtisodiy ma’lumotga ega bo‘lish; yoki
- iqtisodiyot sohasida kamida 1 yillik amaliy ish stajiga ega bo‘lish.

3.2. Ushbu sertifikat uchun buxgalteriya hisobi bo‘yicha maxsus tayyorgarlik talab etilmaydi — dasturning moliyaviy hisobot moduli tanishtiruv darajasida beriladi.

3.3. Standartlarning asl matni bilan ishlash uchun ingliz tilini o‘qish darajasida bilish tavsiya etiladi, biroq bu majburiy shart emas — mashg‘ulotlar va imtihon o‘zbek tilida o‘tkaziladi.

IV. KURS HAJMI VA TUZILMASI

4.1. Kursning umumiy hajmi — 48 auditoriya soati (1 akademik soat — 45 daqiqa) va 48 soat mustaqil ta’lim. Tavsiya etiladigan davomiylik — 6 hafta (haftasiga 8 auditoriya soati). Auditoriya soatlari cheklangani sababli standartlar matnini mustaqil o‘qish va topshiriqlarni bajarish o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

4.2. Modullarning soatlar taqsimoti va malaka imtihonidagi ulushi:

№	Modul nomi	Ma’ruza	Amaliy	Jami soat	Imtihondagi ulushi, %
M1	AAOIFI shariat standartlari va islom moliyasi mahsulotlari	22	8	30	60
M2	AAOIFI moliyaviy hisobot standartlari (FAS)	2	—	2	5
M3	AAOIFI boshqaruv standartlari (GS)	2	—	2	5
M4	AAOIFI kasbiy etikasi	4	—	4	10
M5	Amaliy masalalar va keyslar	—	10	10	20
	JAMI	**30**	**18**	**48**	**100**

V. KUTILAYOTGAN O‘QUV NATIJALARI

Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchi quyidagi malakalarga ega bo‘ladi:

- ribo, g‘arar va maysir taqiqlarining mohiyatini tushuntirish va bitimda ular mavjudligini aniqlash;

- islom moliyasi shartnomasining arkonlari va shartlarini bilish, bitimni haqiqiy va botil qiluvchi holatlarni farqlash;
- murobaha, mudoraba, musharaka, ijara, salam, istisno’, vakala, sukuk va takoful bo‘yicha standart talablarini amaliyotga tatbiq etish;
- mijoz ehtiyojiga mos shariatga muvofiq mahsulotni tanlash va uning shartnomaviy tuzilmasini loyihalash;
- bitimning hujjatlar oqimini va shartnomalar ketma-ketligini shariat talablariga muvofiq belgilash;
- an’anaviy bank mahsuloti va uning islomiy muqobili o‘rtasidagi farqni mijozga tushuntirish;
- sukuk chiqarishning asosiy tuzilmalarini va aksiyalarni shariat bo‘yicha skrining mezonlarini qo‘llash;
- bitimda shariat talablari buzilishini aniqlash va uni bartaraf etish yo‘llarini taklif qilish;
- operatsiyalarning moliyaviy hisobotda aks etishi haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish;
- Shariat nazorati kengashi bilan ishlash tartibini bilish va kasbiy etika tamoyillariga amal qilish.

VI. MODULLARNING MAZMUNI

Modul 1. AAOIFI shariat standartlari va islom moliyasi mahsulotlari — 30 soat (60%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
1.1	Islom moliyasining shariat asoslari: manbalar (Qur’on, Sunnat, ijmo‘, qiyos), fiqh al-muomalot tamoyillari va maqosid ash-shari’a. Ribo, g‘arar va maysir taqiqlarining iqtisodiy mazmuni, harom faoliyat va aralash daromad masalasi. AAOIFI shariat standartlari tizimining tuzilishi, maqomi va qo‘llanish tartibi.	2
1.2	Shartnomalar bo‘yicha umumiy qoidalar: aqdning arkonlari va sharti, taraflar irodasi, bitim predmetiga qo‘yiladigan talablar. Va’d va muvo’ada, xiyor turlari, shartnomalarni birlashtirish (ikki bitimni bir bitimda jamlash) taqiqi, bitimni bekor qilish va qayta tuzish.	2
1.3	Savdo asosidagi moliyalashtirish standartlari: murobaha va sotib olish buyurtmachisi uchun murobaha, kechiktirilgan to‘lovli sotuv. Aktivga egalik va xatarning o‘tishi, arbun, kafolat va garov, kechikish uchun jarima va uni xayriyaga yo‘naltirish. Tavarruq va ina bitimlariga qo‘yiladigan cheklovlar.	4
1.4	Ijara standartlari: ijara va ijara muntahiya bittamlik, mulkni o‘tkazish mexanizmlari (hiba, sotuv, bosqichma-bosqich sotib olish). Xizmat ijarasi, subijara, ta’mirlash va sug‘urta xarajatlarining taqsimoti, aktiv nobud bo‘lgan holatlar.	4
1.5	Sheriklik standartlari: mudoraba va musharaka. Kapital qo‘yilmasi va uning shakllari, foydani taqsimlash qoidalari va zararning kapital ulushiga muvofiq taqsimlanishi, sherikning kapitalga kafolat berish taqiqi, kamayib boruvchi musharaka, bitimni tugatish va hisob-kitob.	4
1.6	Kechiktirilgan yetkazib berish standartlari: salam va parallel salam, istisno va parallel istisno. Mahsulot tavsifi, muddat va narx shartlari, oldindan to‘lov talabi, ikki bitimning bir-biriga bog‘lanmasligi, sifat va muddat buzilishi holatlari.	4

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
1.7	Vakolat, xizmat va ta’minot standartlari: vakala va uning turlari, ju’ola, kafolat va rahn, havola, muqossa. Vakolat haqi, rag‘bat foydasi va vakilning mas’uliyati chegaralari.	2
1.8	Islom kapital bozori standartlari: sukukning turlari, chiqarish tuzilmasi, savdosi va tugatilishi, sukuk egasining aktivga bo‘lgan huquqi va aktivni qayta sotib olish va’dasiga qo‘yilgan cheklovlar. Aksiya va moliyaviy qog‘ozlarga qo‘yiladigan talablar, shariat bo‘yicha skrining mezonlari va indekslar.	4
1.9	Takoful standartlari: islomiy sug‘urtaning shariat asoslari, ishtirokchilar jamg‘armasi va operator o‘rtasidagi munosabat, vakala va mudoraba modellari, ortiqcha mablag‘ (surplus) taqsimoti, retakoful.	2
1.10	Bank xizmatlari va zamonaviy masalalar bo‘yicha standartlar: hisobvaraqlar va omonatlar, debet va kredit kartalar, akkreditiv va bank kafolati, valyuta almashuvi (sarf) qoidalari, oltin va tovar bitimlari, xedjlash vositalari, shariatga muvofiq bo‘lmagan daromadni tozalash (purification).	2
	Modul bo‘yicha jami	**30**

Modul 2. AAOIFI moliyaviy hisobot standartlari (FAS) — 2 soat (5%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
2.1	AAOIFI moliyaviy hisobot standartlari tizimi haqida umumiy tasavvur: kontseptual asos va FAS 1 bo‘yicha hisobot to‘plami tarkibi, kvazi-kapital va investitsiya hisobvaraqlarining hisobotdagi o‘rni. Asosiy bitimlar (murobaha, ijara, sheriklik, sukuk) hisobining mohiyati, islomiy oyna hisoboti va zakot bo‘yicha oshkor qilish. Mahsulot tuzilmasining hisobotga ta’siri.	2
	Modul bo‘yicha jami	**2**

Modul 3. AAOIFI boshqaruv standartlari (GS) — 2 soat (5%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
3.1	GS 1 (2024-yil tahriri) «Shariat boshqaruvi asoslari»: tizimning tarkibiy qismlari. Shariat nazorati kengashini tayinlash, funksiyalari va hisoboti (GS 19, GS 20, GS 21); shariatga muvofiqlik funksiyasi (GS 9) va ichki shariat auditi (GS 11); islomiy oynalarga qo‘llash (GS 23). Mahsulotni tasdiqlatish tartibi va mutaxassis tomonidan tayyorlanadigan hujjatlar.	2
	Modul bo‘yicha jami	**2**

Modul 4. AAOIFI kasbiy etikasi — 4 soat (10%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
4.1	Islom moliyasi mutaxassislari uchun AAOIFI kasbiy etika kodeksi: shariatga sodiqlik, amonat, sidq, adolat va mas’uliyat tamoyillari; kasbiy salohiyat, e’tibor va maxfiylik talablari; jamiyat manfaatiga xizmat qilish.	2
4.2	Etik tahdidlar va himoya choralari: manfaatlar to‘qnashuvi, mijozni chalg‘itmaslik, mahsulotni to‘g‘ri taqdim etish va shariatga muvofiqlik da’vosining asoslanganligi. GS 16 «Etikani joriy etishning institutsional asosi», xabar berish mexanizmi, etik dilemmani hal qilish algoritmi va Auditorlar palatasining odob-axloq kodeksi.	2
	Modul bo‘yicha jami	**4**

Modul 5. Amaliy masalalar va keyslar — 10 soat (20%)

№	Mavzu va uning mazmuni	Soat
5.1	Keys: mijoz ehtiyojini tahlil qilish va unga mos shariatga muvofiq mahsulotni tanlash — murobaha, ijara va musharaka muqobillarini taqqoslash, tanlovni asoslash.	2
5.2	Amaliy mashg‘ulot: tanlangan mahsulotning shartnomaviy tuzilmasini loyihalash — shartnomalar ketma-ketligi, hujjatlar oqimi, aktivga egalik va xatarning o‘tish nuqtalari.	2
5.3	Keys: an’anaviy bank mahsulotini (iste’mol krediti, lizing, aylanma mablag‘ moliyalashtirish) islomiy muqobilga aylantirish va farqlarni mijozga tushuntirish.	2
5.4	Keys: bitimlar to‘plamida shariat talablari buzilishini aniqlash — egalikning yo‘qligi, ikki bitimning bog‘lanishi, kafolat berish, jarima shartlari — va ularni bartaraf etish yo‘llari.	2
5.5	Keys: sukuk chiqarish yoki islomiy oyna ochish tuzilmasini tayyorlash va Shariat nazorati kengashiga taqdim etiladigan hujjatlarni shakllantirish. Malaka imtihoni formatidagi yakuniy test mashqi va uni tahlil qilish.	2
	Modul bo‘yicha jami	**10**

VII. BAHOLASH VA SERTIFIKATLASH TARTIBI

Joriy baholash

7.1. Joriy baholash o‘quv tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi va har bir modul yakunidagi amaliy topshiriqlar hamda test mashqlarini o‘z ichiga oladi. Tinglovchi mashg‘ulotlarning kamida 75 foizida qatnashgan va barcha amaliy topshiriqlarni bajargan taqdirda kursni tamomlaganligi to‘g‘risidagi hujjatni oladi.

7.2. Kursni tamomlash to‘g‘risidagi hujjat malaka sertifikati hisoblanmaydi va o‘z-o‘zidan kasbiy huquq bermaydi.

Malaka imtihoni

7.3. Malaka imtihoni Palataning Imtihon komissiyasi tomonidan test markazlarida, faqat oflayn shaklda, kompyuterda o‘tkaziladi. Imtihon sessiyalari har 2 oyda bir marta tashkil etiladi; jadval kalendar yil boshlanishidan kamida 30 kun oldin e’lon qilinadi.

7.4. Imtihon parametrlari:

Savollar soni	100 ta test savoli (amaliy masalalar ham test shaklida beriladi)
Davomiyligi	3 soat
Maksimal ball	100 ball
O‘tish bali	kamida 75 ball (75%)
Baholash	avtomatik; natija imtihon tugashi bilan darhol e’lon qilinadi
To‘lov	har bir imtihon arizasi uchun BHM ning 3 baravari
Ruxsat etiladi	faqat shaxsni tasdiqlovchi hujjat; kompyuterda Excel ochib beriladi

7.5. Imtihon savollarining bo‘limlar bo‘yicha ulushi Nizomga muvofiq quyidagicha belgilangan:

Imtihon bo‘limi	Tegishli modul	Ball
AAOIFI shariat standartlari	M1	60
AAOIFI buxgalteriya hisobi standartlari (FAS)	M2	5
AAOIFI boshqaruv standartlari	M3	5
AAOIFI etika standarti	M4	10
Amaliy masalalar (keyslar)	M5	20
JAMI		**100**

7.6. Imtihondan o‘ta olmagan nomzod keyingi imtihon sessiyasida yangi ariza va to‘lov asosida qayta topshirish huquqiga ega. Imtihon natijalari yuzasidan nomzod natija e’lon qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga elektron shaklda ariza berishi mumkin; ariza 5 ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi va qaror 1 ish kuni ichida nomzodga yuboriladi.

Sertifikat va malaka oshirish

7.7. «Islom moliyasi va banki bo‘yicha mutaxassis» sertifikati muddatsiz beriladi. Sertifikat elektron shaklda, raqam va QR-kod bilan rasmiylashtiriladi hamda Palataning ochiq elektron reyestrida e’lon qilinadi.

7.8. Sertifikat har yili malaka oshirish sharti bilan amal qiladi: sertifikat olingan yildan keyingi yildan boshlab har yili akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv tashkilotida Palata tasdiqlagan dastur bo‘yicha 40 soat hajmida malaka oshirish kursini o‘tash talab etiladi.

7.9. Malaka oshirish talabi bajarilmasa, sertifikatning amal qilishi to‘xtatib turiladi. Bir yil ichida talab bajarilmagan taqdirda sertifikatning amal qilishi Malaka komissiyasi qarori bilan tugatiladi.

VIII. O‘QITISH METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI

8.1. Kurs kunduzgi (offline), masofaviy (online) yoki aralash shaklda tashkil etilishi mumkin. Amaliy masalalar moduli (M5) barcha shakllarda o‘qituvchi ishtirokida jonli (sinxron) o‘tkazilishi shart.

8.2. Kurs jadal (intensiv) formatda o‘tkazilishini hisobga olib, har bir mashg‘ulotdan oldin tinglovchiga tegishli standart matni va tayyorgarlik topshirig‘i oldindan yuborilishi tavsiya etiladi — auditoriya vaqti asosan tahlil va amaliy ishga ajratiladi.

8.3. Tavsiya etiladigan metodlar:

- interaktiv ma’ruza va standart matnini birgalikda tahlil qilish;
- real shartnoma va bitim hujjatlari to‘plami asosida tahlil mashqlari;
- an’anaviy va islomiy mahsulotlarni yonma-yon taqqoslash jadvallarini tuzish;
- mahsulot tuzilmasini chizma shaklida loyihalash (bitim sxemalari);
- kichik guruhlarda muhokama, mijoz bilan suhbat va etik dilemmalar bo‘yicha rolli o‘yinlar;

– AAOIFI standartlarining asl (ingliz tilidagi) matni bilan ishlash mashqlari;
– malaka imtihoni formatidagi test mashqlari, shu jumladan amaliy masalalarning test ko‘rinishi bilan ishlash.

8.4. O‘quv tashkiloti har bir tinglovchini AAOIFI shariat standartlarining amaldagi tahriri (elektron yoki bosma) bilan ta’minlashi lozim.

8.5. Malaka imtihonida hisob-kitob uchun faqat kompyuterdagi Excel dasturidan foydalanishga ruxsat berilganini hisobga olib, hisob-kitob talab qiladigan mashqlar elektron jadvallarda, kalkulyatorsiz bajarilishi tavsiya etiladi.

IX. O‘QUV TASHKILOTI VA O‘QITUVCHILARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

9.1. Kursni tashkil etish huquqi Palata akkreditatsiyasidan o‘tgan oliy ta’lim muassasalariga beriladi. Akkreditatsiya uchun uchta shart talab etiladi:

– ta’lim faoliyati bo‘yicha tegishli litsenziyaning mavjudligi;
– ushbu dastur asosida ishlab chiqilgan va o‘quv tashkiloti tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturi hamda o‘quv rejasining mavjudligi;
– xalqaro (AAOIFI) yoki Palataning tegishli malaka sertifikatiga ega o‘qituvchilar bilan ta’minlanganlik.

9.2. Akkreditatsiya arizasi Palataning rasmiy veb-sayti orqali elektron shaklda beriladi va unga yuqoridagi hujjatlar ilova qilinadi.

9.3. Modullarni o‘qitishga jalb etiladigan o‘qituvchi quyidagi talablardan kamida bittasiga javob berishi lozim:

– AAOIFI kasbiy sertifikatlaridan biriga (CPSS, CSE, CSAA, CSA, CIPA, CPFAS, CPAAGE, DipIFR) ega bo‘lish;
– Palataning «Islom moliyasi va banki bo‘yicha mutaxassis» yoki undan yuqori bosqichdagi malaka sertifikatiga ega bo‘lish.

9.4. Dasturning asosiy hajmi shariat standartlariga ajratilganini hisobga olib, 1-modulni o‘qitishda shariat va fiqh al-muomalot sohasi mutaxassisi ishtirok etishi talab etiladi. Amaliy keyslar (M5) ni o‘qitishga islom moliya institutida yoki islomiy oynada mahsulot tuzilmalash bo‘yicha amaliy tajribaga ega mutaxassislarni jalb etish tavsiya etiladi.

9.5. Akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv tashkiloti sertifikatlashga tayyorlov kurslari bilan bir qatorda har yilgi 40 soatlik malaka oshirish kurslarini tashkil etish huquqiga ega bo‘ladi.

X. O‘QUV-USLUBIY VA AXBOROT TA’MINOTI

Asosiy manbalar

– AAOIFI. Shari’ah Standards (SS 1–62). Manama: AAOIFI (amaldagi tahrir).
– AAOIFI. Governance Standards (GS 1–23), xususan GS 1 (Revised 2024) «Shari’ah Governance Framework».
– AAOIFI. Code of Ethics for Islamic Finance Professionals.

- AAOIFI. Financial Accounting Standards (FAS 1–53) va Conceptual Framework for Financial Reporting (Revised 2020) — tanishtiruv darajasida.

Qo‘shimcha adabiyotlar

- Syeda Fahmida Habib. Fundamentals of Islamic Finance and Banking. Wiley, 2018.
- Simon Archer, Rifaat Ahmed Abdel Karim (eds.). Islamic Finance: The New Regulatory Challenge. 2nd ed. Wiley, 2013.
- Islamic Financial Services Board (IFSB) standartlari — shariat boshqaruvi va oshkor qilish bo‘yicha talablar.

Milliy normativ hujjatlar

- O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-son Qonuni — islomiy bank faoliyatini joriy etishga oid qo‘shimcha va o‘zgartirishlar.
- «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-677).
- «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-404).
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-son qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining islomiy moliyalash operatsiyalariga oid normativ hujjatlari.
- Auditorlar palatasining islom moliyasi bo‘yicha sertifikatlash to‘g‘risidagi Nizomi hamda malaka imtihoni qatnashchilarining odob-axloq kodeksi.

XI. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Ushbu dastur AAOIFI standartlari yangilanishiga qarab, lekin yiliga kamida bir marta ko‘rib chiqiladi. Dasturga o‘zgartirishlar Palata Metodologiya qo‘mitasining qarori bilan kiritiladi va Palataning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

11.2. Standartlarning yangi tahrirlari chiqqan taqdirda imtihon savollari bazasi ular kuchga kirgan sanadan boshlab kamida uch oy o‘tgach yangilanadi. Bu haqda o‘quv tashkilotlari va nomzodlar oldindan xabardor qilinadi.

11.3. Dastur talablarining bajarilishi ustidan nazorat Auditorlar palatasi tomonidan akkreditatsiya doirasida amalga oshiriladi.